

BANKLARDA EKOLOGIK VA IJTIMOIIY RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH

Karimov Shamsiddin Akram o'g'li

*Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish
qo'mitasi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mas'uliyati tamoyillari, shuningdek banklarda ekologik va ijtimoiy risklarning yuzaga kelishi, banklarning ekologik risklarni baholashi va faoliyatida yuzaga keluvchi boshqa risklar va ularni boshqarish masalalarini o'z ichiga qamrab olgan.*

***Abstract:** This article covers the principles of environmental, social and management responsibility, as well as the occurrence of environmental and social risks in banks, assessment of environmental risks and other risks arising in the activities of banks and their management.*

***Kalit so'zlar:** ekologik risk, ijtimoiy risk, risklarni baholash, ekologik xatarlar, ekologik va itimoiy baholash majburiyatlari.*

***Key words:** environmental risk, social risk, risk assessment, environmental risks, environmental and social assessment obligations.*

KIRISH

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lidagi global tendensiya banklar oldiga yangi vazifa – ekologik (E – ekologik), ijtimoiy (S – ijtimoiy) va boshqaruv (G – boshqaruv) mas'uliyati tamoyillariga yo'naltirilgan biznes modelini qurish vazifasini qo'yimoqda. Yirik banklar bir necha yillardan buyon o'zlarining kreditlash jarayonlariga ESG standartlarini faol ravishda kiritib, mijozlarni atrof-muhit va jamiyatga salbiy ta'sirini kamaytirishga undamoqda.

Bunday yondashuv ba'zi hollarda arzonroq moliyalashtirish va investor

bazasini kengaytirishi mumkin bo'lgan qarz oluvchilarga ham, mijozlarning sodiqligini oshiradigan banklarning o'ziga ham foyda keltiradi.

Ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) - bu kompaniyaning ekologik va ijtimoiy muammolarni hal qilishda ishtirok etishiga erishadigan boshqaruv xususiyatlari to'plami. Xususan, atrof-muhit mezonlari kompaniyaning atrof-muhitni qanday himoya qilishini belgilaydi, ijtimoiy mezonlar xodimlar, etkazib beruvchilar, mijozlar va jamiyat bilan munosabatlarni qanday tashkil etishini o'rganadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.”¹

Bank o‘z faoliyatida inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi global qadriyatlarni targ‘ib etishga, mehnat munosabatlariga, atrof-muhit muhofazasiga ma’suliyatli yondashishga, ilg‘or tajribalar, Xalqaro moliya institutlarining qo‘llanma hujjatlari va Global barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq ixtiyoriy ravishda ekologik va ijtimoiy majburiyatlarni oladi.

O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-huquqiy va qonunchilik hujjatlarida banklarning ekologik majburiyatlarini belgilovchi quyidagi qoidalar mavjud:

Bank atrof-muhitni muhofaza qilish talablari va ekologik samaradorlik standartlariga javob bermaydigan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda qatnashmaydi.

Bank tomonidan davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasi bo‘lmagan loyihalarni moliyalashtirish va kreditlashga yo‘l qo‘ymaslik;

tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik vaziyatni yaxshilashga yo‘naltirilgan investitsiya loyihalarini ustuvor moliyalashtirish.

Bank ekologik va ijtimoiy risklarni va salbiy ta’sirlarni aniqlash hamda

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 68-modda.
www.pedagoglar.org

ularning oldini olish, minimallashtirish yoki kompensatsiya qilish choralarini o'z vaqtida rejalashtirish va amalga oshirish uchun qarz oluvchilar faoliyatini va moliyalashtiriladigan loyihalarni ekologik va ijtimoiy baholashni amalga oshirish majburiyatini oladi.

Bank o'z resurslarini atrof muhitga jiddiy zarar yetkazishi va jiddiy ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan loyihalardagi va sohalardagi konsentratsiyasini kamaytirish uchun oqilona va iqtisodiy maqsadga muvofiq harakatlar qiladi va istisnolar ro'yxatiga kiritilgan ayrim faoliyat turlarini moliyalashtirmaydi.

Bank madaniy va tarixiy meros ob'ektlarining hozirgi va kelajak avlodlar uchun muhim rolini e'tirof etadi va ularni himoya qilishni o'zining moliyalashtirish faoliyatida ta'minlaydi. Bank madaniy va tarixiy meroslarni, qonun bilan himoya qilinishi yoki qilinmasligidan qat'iy nazar, ularni himoya qilishdan manfaatdor.

Bank o'z faoliyatida ekologik va ijtimoiy boshqaruv samaradorligini doimiy ravishda oshirish majburiyatini oladi. Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimining samarali ishlashini ta'minlash uchun vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqilishi, yangilanishi va o'zgartirilishi, shu jumladan uning faoliyatini doimiy ravishda ichki baholash natijasida aniqlangan va barqaror rivojlanish sohasida erishilgan natijalar bilan taqqoslanishi kerak.

Bank tomonidan qarz oluvchilarga quyidagi ekologik va ijtimoiy talablar qo'yiladi:

Bankning istisnolar ro'yxatiga kiritilgan faoliyat bilan shug'ullanmaslik;
atrof muhitni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash, xavfsizlik, mehnatni muhofaza qilish, mehnat munosabatlari, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish va boshqa ijtimoiy jihatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, davlat standartlari va me'yorlariga rioya qilish;

Bankning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimida belgilangan hollarda XMIlarning IESlari talablariga va Jahon bankining atrof-muhit, sog'liqni saqlash va mehnatga oid qo'llanmalariga muvofiq biznes faoliyatini olib borish va kompleks loyihalarni amalga oshirish;

ekologik risklarni minimallashtirish, atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan zamonaviy texnologiyalar, uskunalar va materiallarni joriy etish orqali inson va atrof muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish;

ijtimoiy risklarning oldini olish, kamaytirish va ijtimoiy javobgarlikni oshirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish;

faoliyatni amalga oshirish va loyihalarni Bank tavsiyasiga binoan tashkil qilishda ilg'or ekologik va ijtimoiy tajribalarni joriy etish va qo'llash.

Bankning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish siyosati, Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangandan so'ng, Boshqaruv tomonidan Investitsiya va kredit qo'mitalari orqali amalga oshiriladi. Siyosatni amaliy tatbiq qilish Bankning Risk menejment departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi "Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun.
3. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati haqida"gi Qonuni.
4. Abdullayeva Sh.Z. "Bank ishi". Darslik. T. "Iqtisod-Moliya" 2017.

www.cbu.uz

www.lex.uz

www.bank.uz